

JALOLIDDIN MANGUBERDI QALBIMIZDA MANGU YASHAYDI.

Yo'ldashev Nurbek Jo'rabek o'g'ili

Yangiariq Education Centrs Nodavlat ta'lim muassi 11-sinf o'quvchisi.

Abduazim Mutalov

Ilmiy rahbar: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faxriy professori, iqtisod fanlari doktori

Annotatsiya: *Shunday go'zal va tinch yurtda yashar ekanmiz butun dunyo tan olgan va ular haqida biz baralla hayqirib ayta oladigan tarixga egamiz. Ayniqsa atiga 33 yil umir ko'rib o'zing jasorati va qobilyati bilan yurtga vatanga va xalqiga bo'lgan sevgisi va sadoqati bilan tillarda doston bo'lgan Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan hattoki ko'plab yerlarni bosib olib buyuk imperiya yaratgan qudratli chingizxon ham tan bergan buyuk bobomiz jasorati biz yoshlar qalbida yanayam vatanga bo'lgan sevgimiz va sadoqatimizni oshiradi.*

Kalit so'zlari: *Xorazmshohlar, Muhammad Xorazmshohning „Manguberdi, Chingizxon, jasur, sarkarda, imperiya, gurganch, turk, fors.*

Аннотация: *Живя в такой красивой и мирной стране, мы имеем историю, признанную всем миром и можем кричать о ней. В частности, Джалалуддин Мангуберди, ставший легендой на языках благодаря своему мужеству и способностям, своей любви и преданности стране и народу в возрасте всего 33 лет, участвовал в военных походах своего отца и продемонстрировал своего храброго воина и талантливого воина. общие навыки. Храбрость нашего прадеда, признанная могущественным Чингисханом, покорившим многие земли и создавшим великую империю, увеличивает в сердцах нашей молодежи любовь и верность Родине.*

Ключевые слова: *хорезмшахи, Мангуберды Мухаммада хорезмшаха, Чингисхан, храбрый, военачальник, империя, Гурганч, тюрк, перс.*

Annotation: *Living in such a beautiful and peaceful country, we have a history recognized by the whole world and we can shout about it. In particular, Jalaluddin Manguberdi, who became a legend in languages with his courage and ability, his love and loyalty to the country and people at the age of only 33 years, participated in his father's military campaigns and demonstrated his brave warrior and talented general skills. The bravery of our great grandfather, recognized by the mighty Genghis Khan, who conquered many lands and created a great empire, increases our love and loyalty to the motherland in the hearts of our youth.*

Key words: *Khorezmshahs, Muhammad Khorezmshah's Manguberdi, Genghis Khan, brave, warlord, empire, Gurganch, Turkish, Persian.*

KIRISH

Jaloliddin Manguberdi 1198 yilda tavallud topgan bo'lib, so'nggi xorazmshoh hisoblanadi. Uning otasi xorazmshohlar mamlakati hukmdori Sulton Alovuddin Muhammad bo'lgan.

Jaloliddin harbiy muhitda ulg'aygan va jang san'atini erta o'zlashtiradi. G'azna (hozirgi Afg'oniston) uning qaramog'ida bo'lishiga qaramay, otasi fitnalardan saqlanib, o'g'lini o'zini oldida Gurganchda ushlab turadi. Ammo, yosh Jaloliddin dushmanlar bilan tinimsiz janglar bo'lib o'tuvchi chegaraga chiqishga harakat qilardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Jaloliddin Manguberdi (arabcha: منكبرتي الدين جلال – Jalāl al-Dīn Menguberdī, to'liq ismi - Jaloliddin Abulmuzaffar Manguberdi ibn Muhammad) (1198–1231) - Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220-yildan), Muhammad Xorazmshohning to'ng'ich o'g'li, kelib chiqishi turkmanlarning Begdili urug'iga borib taqaladi. Jaloliddin 33 yil umr ko'rgan bo'lib, shundan 11 yili turli janglar ichida o'tgan. To'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad. Onasi - Oychechak bo'lgan. Jaloliddining burnida xoli (mank) bo'lgani uchun ham Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib „Manguberdi“ nomi bilan mashhur bo'lib ketgan.

Anushteginiylar - kelib chiqishi turkiy xalqlardan bo'lgan Anushtegin asos solgan Xorazmni, Eronni va Kavkazorti davlatlarni boshqargan sulola (1097-1231).

Dastlab Saljuqiylar davlatiga qaram bir viloyat sifatida bo'lgan. Saljuqiylar davlati hukmdori Malikshoh o'z noiblaridan biri Anushteginni Xorazmga hokim qilib tayinlaydi. Keyinchalik Saljuqiylar davlati zaiflashganidan so'ng Xorazm mustaqillikni qo'lga kiritadi. Davlatga 1077-yilda asos solingan va mo'gullar bosqini tufayli o'z mustaqilligini yo'qotib, tarix sahnasidan o'chirilgan. Taxminlarga ko'ra, sulola 2,3 milliondan 3,6 million kvadrat kilometrgacha bo'lgan maydonni egallagan.

Anushteginiylar sulolasining vakili, Anushteginning o'g'li Qutbiddin Muhammad (? - 1127) 1097–1127-yillarda Xorazmni boshqardi. Otasi vafotidan keyin saljuqiylarning Xurosondagi isyonkor noibi amir Dodbek Habashiy tomonidan Xorazm noibi etib tayinlangan va xorazmshoh unvonini olgan (1097). Anushteginiylar-xorazmshohlar sulolasining tarixi aslida utbiddin Muhammaddan boshlanadi. 1100-yil saljuqiylar sultoni Barqiyorug va ukasi Sanjar Dodbek Habashiy isyonini bostirganlar. Sanjar Xurosonni qo'lga kiritgach, Qutbiddin Muhammadni Xorazm hokimligi mansabida qoldirib tasdiqlagan. Qutbiddin Muhammad sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qilgan, har yili ikki marotaba shaxsan sulton saroyiga borib turgan, Sanjar olib borgan janglarda o'z qo'shini bilan qatnashib, xiroj, o'lponlarni o'z vaqtida to'lab turgan. Qutbiddin Muhammad oli-mu fuzalolarga homiylik qilgan adolatli hukmdor bo'lgan. Jurjoniyning tabobatiga oid "Zahirayi xorazmsho-hiy" asari Qutbiddin Muhammadga bag'ishlangan.

Chingizxonning rejalashtirgan bosqinidan xabardor bo'lib, Jaloliddin otasidan qo'shinini Sirdaryoga qo'yib, dushmani o'sha yerda kutib olishini so'raydi, lekin otasi himoya devorlari va qal'asi dushmani mamlakatga qo'ymasligiga amin bo'ladi va qo'shin to'plamaslikka qaror qiladi. Mo'g'ullar shaharni shiddat bilan bosib oladi. Avvaliga, 1220 yil Buxoro, keyin Samarqand o'rab olinadi. Jiddiy xastalangan Muhammad Kaspiyga qochadi. Uchta o'g'lini

to'playdi, Jaloliddinning beliga o'z shamshirini osib, uni taxt vorisi etib tayinlaydi va boshqa ukalarini akasiga itoat qilishlarini undaydi. Muhammadning o'limidan so'ng Jaloliddin taxtga o'tiradi, lekin Gurganch aslzodalari yangi hukmdorni bepisand qilib, xalq madadidan chetda qoldirishadi.

Jaloliddin uch yuz sodiq turkman jigitlaridan iborat qo'shin to'playdi va Xurosonga yo'l oladi. Niso atrofida ular yetti yuz kishilik mo'g'ul qo'shinini kutib olishadi va ularni osonlikcha yengishadi.

Muhokama. Mo'g'ullarga qarshi kurashi.

Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrda bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo'yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashura orolidan panohtopgan. Og'ir bemor bo'lgan Muhammad o'g'illarini yoniga chorlab, so'nggi damda Jaloliddin Manguberdini o'z o'rniga xorazmshoh etib tayinlagan. Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin O'zloqshohlar bilan birga Gurganj mudofaasiga oshiqadi. Lekin Gurganjdagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e'lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo'ldilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjni tark etib Xurosonga yo'l olgan. Niso shahri yaqinida uni 700 nafar mo'g'ul suvoriysi kutardi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so'ng ularni tor-mor keltirib, Nishopurga keldi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga nomalar jo'natib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi birlashishga da'vat etadi. Bir oydan so'ng G'azna tomon yo'l oladi. Yo'lda unga Hirot voliysi, qaynotasi Aminalmulk 10 ming kishilik qo'shin bilan kelib qo'shilgan. Qandahorni qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari bilan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdi ularni tor-mor keltirgan. Jaloliddin G'aznaga 1221-yilda kirib kelgan. Bu yerda unga xalaj qabilasi boshlig'i Sayfuddin Ig'roq, Balx voliysi A'zam Malik, afg'onlar sardori Muzaffar malik, qarluqlar yetakchisi Hasan Qarluq kelib qo'shilgan. Ularning har biri ixtiyorida 30 minglik qo'shin bor edi. Jaloliddin Manguberdining o'zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal'asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg'ur boshchiligidagi mo'g'ul qo'shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so'ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo'g'ul askari o'ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o'tib, ko'priknibuzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

Chingizxon katta qo'shin to'plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi otlangan. Fapdiz qal'asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo'shinining ilg'orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo'shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o'tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo'lgan tengsiz jangda (Sind daryosi bo'yidagi jang) mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan 18-20 metrlik jarlikdan Sind daryosiga sakrab, uning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho'l hozirda ham Cho'li Jaloliy deb ataladi). Chingizxon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'illariga qarab: „Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!“, degan.

Xulosa.

O‘zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberding mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o‘z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida „Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida“ qaror qabul qildi (1998-yil). Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydon, jamoa korxonalar va boshqalarga uning nomi qo‘yildi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesa va boshqa yaratilgan. „Jaloliddin Manguberdi“ ordeni ta‘sis etilgan (2000-yil 30-avgust).

Hozirgi kunga kelib, Jaloliddin, o‘zbek va turkman xalqlarining milliy qahramoniga aylangan. Unga atab bir necha doston va asarlar yaratilgan.

O‘zbekistonda Jaloliddin Manguberdi milliy qahramonlardan biridir. 1999-yilda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. O‘zbekistonda unga bir qancha yodgorliklar o‘rnatilgan, Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasi barpo etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatida yangi haykalni ochdi[5].

1999-yilda Jaloliddin tavalludining 800 yilligiga bag‘ishlangan 25 so‘mlik esdalik tangalari muomalaga chiqarildi[6].

2000-yil 30-avgustda "Jaloliddin Manguberdi" (o‘zbek) ordeni (o‘zbekcha: Jaloliddin Manguberdi ordeni) ta‘sis etildi. Nizomga ko‘ra, orden bilan mamlakatimiz mustaqilligi, sarhadlari daxlsizligini himoya qilishda harbiy iste‘dod, mardlik va qahramonlik namunasi ko‘rsatgan, davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shgan harbiy xizmatchilar taqdirlanadi. davlatning mudofaa qobiliyati. 2003-yil 22 avgustda Xorazm viloyati ushbu orden bilan taqdirlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999;
- Jaloliddin Manguberdi (o‘zbek, ingliz, rus tilida), T., 1999;
- Jaloliddin Manguberdi, Vatan, yurt himoyachisi, T., 1999;
- Buniyotov 3., Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097–1231), T., 1998;
- Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
- Bo‘riyev O., Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
- Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
- Mirxondning „Ravzat us-safo“ asarida Jaloliddin Manguberdi zikri, T., 1999;
- Tonariy O., Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri, T., 1999.
- Akbar Zamonov. O‘rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma‘lum sahifalari.
- Bartold V.V., Sochineniya, t. 2 (chast 2), M., 1964; Buniyodov 3., Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097–1231), T, 1998.
- https://uz.wikipedia.org/wiki/Jaloliddin_Manguberdi